

2025 yil 08-09 sentabr kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti bo'lib o'tgan

“On the Silk Road”: The Heritage of Bukharian Jews (Central Asia) Throughout the Generations”

nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

HISOBOTI

1. Anjuman mavzusi: “On the Silk Road”: The Heritage of Bukharian Jews (Central Asia) Throughout the Generations”, ““Ipak yo'li bo'ylab”: Markaziy Osiyoda buxorolik yahudiylarning avlodlar osha merosi”, ««Po Shelkovomu puti»: Nasledie buxarskix yevreev (Sentralnoy Azii) na protyazhenii pokoleniy»

2. Anjuman maqomi: Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman

3. Ilmiy va ilmiy-texnika anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zR Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar: “2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi 118-buyrug'i); “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni); “Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida” (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 31 iyuldagi 475-son qarori); “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi Farmoni; «Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmoni); “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-52-son Farmoni asos bo'ladi.

4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:

Anjumanning ilmiy yo'nalishi quyidagilardan iborat:

millatlararo munosabatlar

kam sonli xalqlar tarixi

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi

Maqsadi: “On the Silk Road”: The Heritage of Bukharian Jews (Central Asia) Throughout the Generations” konferensiyasi millatlararo munosabatlar, kam sonli xalqlar tarixi, Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan O'zbekiston hududida kechgan etnik-siyosiy, diniy va madaniy jarayonlarning jahon tarixidagi o'rni masalalarini aniqlash bilan bog'liq bir qator muhim xulosalar chiqarishga qaratilgan. Mazkur konferensiya Markaziy Osiyodagi Buxoro yahudiylari tarixini tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, ularning an'anaviy yashash areali hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududlarini qamrab oladi.

Vazifalari: Buxoro yahudiylarining Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon tarixidagi o'rnini muhokama qilish, millatlararo munosabatlar doirasida yangi

bilimlarni olish va boyitish, konferensiyaning amaliy natijasi sifatida to'plam nashr qilish hamda xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashdir.

5. Muhokama qilinadigan muammolar.

Konferensiyaning asosiy sho'balari: Tarixiy va ijtimoiy munosabatlar; Millatlararo munosabatlar va ularning ijtimoiy ahamiyati; Madaniy meros va ijodiy faoliyat; Tilshunoslik va filologik tadqiqotlar; Ijtimoiy-madaniy gender tadqiqotlari; Asosiy tarixiy sinovlar; Zamonaviy migratsiya jarayonlari

6. O'tkaziladigan anjumanning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi: Konferensiya xalqaro ilmiy loyihalar, jumladan, grantlar va davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan integratsiyalashgan

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.

Ilmiy jihatdan, Markaziy Osiyo va jahonning turli hududlarida yashab kelgan va kelayotgan Buxoro yahudiylarining O'zbekiston va jahon tarixidagi o'rniga aniqlik kiritiladi. Turli tarixiy davrlarda kechgan etnik, siyosiy, madaniy jarayonlarda millatlararo munosabatlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi; O'zbekiston Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgani sababli tarixan turli xalq, millat va elat vakillari madaniyatlarini uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Shu bois, xalqimizda azaldan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, kechirimlilik, boshqalarning urf-odat va qadriyatlariga hurmat bilan qarash kabi umuminsoniy fazilatlar shakllangan. Ahamiyatlisi, asrlar davomida mamlakatimiz hududida turli xalqlarning birgalikda yashashi dunyo sivilizatsiyasining boyishiga ham xizmat qilgan. Shu jihatdan Buxoro yahudiylarining an'anaviy yashash areali hozirgi O'zbekiston hududida yashab kelayotgan avlodlar bilan hamkorlik aloqalari ko'rsatib beriladi. Konferensiya "O'zbekistondagi yahudiylar tarixi" bo'yicha ilmiy-amaliy loyihalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi, xorij sarmoyasini jalb qilish imkoniyatini beradi; konferensiya natijalari alohida to'plam sifatida nashr qilinadi.

8. Anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va magistrantlarning ishtirok etishi: Konferensiyada Isroil, AQSH, Rossiya, Ozarbayjon, Tojikiston, O'zbekiston va dunyoning boshqa mamlakatlaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlar, tadqiqotchilar, amaliyotchi mutaxassislar, ilmiy markazlar vakillari hamda tegishli sohalar bo'yicha siyosatchilar ishtirok etishdi. Tarix, filologiya, falsafa, dinshunoslik, etnologiya, muzeyshunoslik yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar, ilmiy loyihalar ishtirokchilariga alohida e'tibor qaratilib, ularni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi.

10. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki: Konferensiyada Isroilning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi, Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Isroilning Bar Ilan universiteti, Ben-Zvi instituti Markaziy Osiyo va Eron tadqiqotlari markazi, Tel-Aviv universiteti, Ashkelon kolleji, Xolon Texnologiya Instituti, Leypsig universiteti, Quddus ibroniy universiteti, Isroil Ta'lim vazirligi, Akademik B.G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti, Ben-Svi instituti Sharqdagi yahudiy jamoalarini o'rganish instituti, Quddsdagi Shexter yahudiy tadqiqotlari instituti, Buxoro yahudiylarining madaniy merosi forumi, Ariel universiteti, Tel

Xay kolleji, Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi, Nyu-York shahar universiteti, Kvins kolleji, Hayfa universiteti, Samarqand o'lkashunoslik muzeyi, Isroil muzeyi va boshqa oliy o'quv yurtlari hamda tegishli tashkilotlardan sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, iqtidorli talabalar, magistrantlar, ilmiy-tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar ishtirok etishdi.

2025 yil 08-sentabr soat 10:00 da konferensiyaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining yalpi majlis kirish so'zida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor, Oliy Majlis Senati a'zosi Xalmuradov Rustam Ibragimovich, Bar-Ilan universiteti rektori prof. Amnon Albek, Mintaqaviy hamkorlik vazirligi bosh direktori janob Gilad Shadmon, Ashkelon akademik kolleji rektori prof. Shimon Sharvit, Ben-Svi instituti Markaziy Osiyo va Eron tadqiqotlari markazi direktori doktor Zeev Levin nutq so'zladi.

Konferensiyaning yalpi majlisida Bar-Ilan universiteti professori Orli Meron *"Ipak yo'lidagi yahudiylar: demografik va iqtisodiy sharh"* mavzusida ma'ruza qildi.

2 kun davom etgan 8 ta sho'bada Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsentlari va tadqiqotchilaridan Feruza Rashidova, Robert Almeev, Baxtiyor Tursunov, Tel-Aviv universiteti professori Meyra Polliach, Leypsig universiteti tadqiqotchisi Benjamin Yakovian, Ashkelon akademik kolleji tadqiqotchisi Eli Goldshteyn, Quddus ibroniy universiteti professori Isxak Kerem, Ben-Svi instituti Markaziy Osiyo va Eron tadqiqotlari markazi direktori Zeev Levin, Akademik B. G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti tadqiqotchisi Timur Karimov, Ariel universiteti professori Leya Makoveski, Nyu-York shahar universiteti, Kuins-kolleji professori Immanuel Ribakov, Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi xodimi Ayna Alixanova va boshqalar ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. 08-09-sentabr kunlari jami 36 ta ma'ruza tinglandi.

Anjuman davomida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti direktori (MOTXI) Evren Rotvil tomonidan *«Mintaqa yahudiylari: o'tmish va hozirgi zamon» katalogi taqdimoti* o'tkazildi. Isroilning Bar Ilan universiteti Dahan markazi bilan konferensiya ma'ruzalarini to'plam sifatida nashr qilishga kelishib olindi. Markaziy Osiyodagi migratsion jarayonlarda yahudiy jamoalarining ishtiroki yuzasidan Respublika va xalqaro grantlarini qidirib topish, ishtirok etish bo'yicha amaliy hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Konferensiya 2025-yilning 9-sentabr kuni kech soat 20.00 da o'z ishini yakunladi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

“On the Silk Road”: The Heritage of Bukharian Jews (Central Asia) Throughout the Generations” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyadan fotolavhalari





